

IT SOHASINING OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA YORITILISHI

Turg'unova E'zoza Ilg'or qizi
O'zJOKU televideniye va radioeshittirish
yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: Axborot asri bo'lmish XXI asr jamiyat hayotining har qanday jabhasiga qator yangilanishlarni olib kirdi. Mazkur o'zgarishlar birinchi navbatda yangi axborot kommunikatsion texnologiyalar ta'siri ostida yuz berib, inson faoliyatining har bir sohasida informatsiyaga bo'lgan ehtiyojning ortishi bilan tavsiflandi. Shular qatori jurnalistika ham zamonaviy texnologiyalar ta'siridan chetda qolmadı. Tabiiyki, bugungi kundagi eng serdaromad sohalardan biri bo'lgan IT sohasi, uning afzalliklari, ayniqsa xotin-qizlar uchun taqdim etayotgan keng imkoniyatlari haqida xalqni boxabar qilishda jurnalislarning va ular faoliyat yurituvchi ommaviy axborot vositalarining o'rni beqiyos. Ushbu ilmiy maqolada ham aynan shu haqda so'z boradi.

Kalit so'zlar: Internet, IT Women, axborot texnologiyalari, jurnalistika, xabar.uz, virtual avlod, Youth Digital Skills, Tumaris Tech.

Hozirgi kunda esa Internet o'zining ko'p sonli ko'rinishlari orqali yangi turdag'i OAVning shiddat bilan yaratilishi yuz berayotgan ulkan mass media (ommaviy axborot) maydonidir.

Elektron OAV an'anaviy OAVni siqib chiqarmoqda va tezkorligi, axborotni qayta ishslash sifati bo'yicha undan o'zib ketmoqda. Elektron OAVning axboriy va multimedia imkoniyatlari soni tobora ko'payib borayotgan o'quvchilarnigina emas, reklama beruvchilarni ham jalg etmoqda.

Axboriy faoliyat tizimida jurnalislarning yangi toifasi shakllanmoqda, tizimli (onlayn) jurnalistika o'zining alohida usul va uslublari bilan rivojlanmoqda. Bundan tashqari, uning o'z kasaba uyushmalari va "yulduzlari" ham paydo bo'lmoqda. Shuningdek, an'anaviy OAVdagi reporter va jurnalislarning asta-sekin onlayn ish tartibiga o'tib bormoqda.

Demak, Internet jurnalist uchun ishlaydigan muayyan axborot tizimi turidan qat'iy nazar (matbuot, radio, TV va h.k.) asosiy mehnat vositaga aylanib bormoqda. Aniqki, Internet bilan ishslash ilmini va malakasini egallash lozim. Mutaxassislar, bunday kishilarga o'z bilmi va tajribasidan foydalanishni, uni amaliyotda qo'llashga harakat qilishni maslahat beradilar.⁴⁴ [Ernazarov Q.T., Mamatova Y.M., Toshaliyev I.E. Reportyorlik faoliyatining nazariyasi va amaliyoti – T., 2002. – B.91-92.]

Hozirgi kunda hech bir sohani axborot texnologiyalarisiz, umuman olganda, Internetsiz tasavvur qilish qiyin. Shu bois ham har bir soha vakillarining IT bo'yicha bilim va malakalarini oshirib borish nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Shu bois ham

⁴⁴ Ernazarov Q.T., Mamatova Y.M., Toshaliyev I.E. Reportyorlik faoliyatining nazariyasi va amaliyoti – T., 2002. – B.91-92.

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH

VOLUME-2, ISSUE-15 (28-February)

xabar.uz portalida IT-Savodxonlik rubrikasi tashkil qilingan bo'lib, unda jurnalist Mahfuza Ro'yiddinova xorij tajribasidan foydalangan holda xalqimizga axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish bo'yicha zarur tavsiyalarni ulashib kelmoqdalar.

"Ijtimoiy tarmoqdagi akkauntni hujumlardan qanday himoya qilish mumkin", "Telefonda slayd tayyorlash uchun eng qulay ilovalar!", "Instagram yulduzlari uchun kerak bo'ladigan foto muharrirlar", "Ko'zi ojizlar uchun eng foydali dasturlar", "Dasturlashga ilk qadam" kabi maqolalar shular jumlasidandir.

Amerikalik kelajakshunos olim E.Tofler "Kelajak, bugungi kun ustiga shitob bilan bostirib kelayotgan bu davr qadriyat, an'ana, milliy madaniyat, did singari tushunchalarni, binobarin, ular haqidagi tasavvurlarni keskin o'zgartirib yubormoqda. Buning natijasida hech kimga o'xshamagan va hech qaysi risolaga to'g'ri kelmaydigan, bizdan hayot va abadiyat, makon va zamon, odob va axlok, yovuzlik va ezgulik, halollik va jo'mardlik haqidagi tasavvurlarni ham o'zgartirishni talab qilayotgan "virtual avlod" shakllanmoqda", deydi.⁴⁵ [Tafakkur. 2010-yil. 1-son-B.28]

Amaliyotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, internetdan to'g'ri foydalana olgan jurnalistlar soni kamchilikni tashkil etadi. Yo'l-yo'riqlarsiz, qolaversa, axborot texnologiyalariga oid yangi terminlarni bilmasdan turib virtual junglida adashib qolish hech gap emas. Jumladan, xabar.uz portalida bir yildan buyon tomoshabinlar e'tiboriga havola etilayotgan "IT-Termin" sahifasi nafaqat bo'lajak dasturchilar, balki barcha internet foydalanuvchilari uchun birdek dasturi amal bo'lib ximat qiladi. Agar sizga biror-bir narsa haqida ma'lumot topish kerak bo'lsa-yu, ammo siz aniq bir manbaga ega bo'lmasangiz, qidiruvchi tarmoq tizimlaridan ham foydalanishingiz mumkin. Ulardan eng mashhurlari — Rambler, Yahoo, Google, Yandex, Aport va h.k.⁴⁶ [Ernazarov Q.T., Mamatova Y.M., Toshaliyev I.E. Reportyorlik faoliyatining nazariyasi va amaliyoti – T., 2002. – B.99.]

Hozirda axborotni izlash, olish va tarqatish ancha qulaylashdi, bunga tezkorlik ila erishish uchun sharoitlar bisyor. Bugungi auditoriya axborotning faqat iste'molchisi emas, yaratuvchisi hamdir. Ijtimoiy tarmoqlar, kanallar, blogerlar faoliyati bunga misol bo'la oladi.

So'nggi yillarda hukumat ayollarning jamiyatdagi roli va nufuzini oshirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Buni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar misolida ham ko'rish mumkin. Yuqorida qayd etilgan islohotlar doirasida 2022-yil 19-iyunda Raqamli texnologiyalar vazirligi tashabbusi bilan va IT Park hamkorligida yangi loyiha — "GAP" deb nomlangan IT sohasida ayollar klubini tashkil etildi. Shu haqda "O'zbekiston 24" telekanali tomonidan maxsus lavha tayyorlanib, efirga uzatildi.⁴⁷ [<https://t.me/mitcuz/7613>]

⁴⁵ Tafakkur. 2010-yil. 1-son – B.28

⁴⁶ Ernazarov Q.T., Mamatova Y.M., Toshaliyev I.E. Reportyorlik faoliyatining nazariyasi va amaliyoti – T., 2002. – B.99.

⁴⁷ <https://t.me/mitcuz/7613>

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH

VOLUME-2, ISSUE-15 (28-February)

Ta'kidlash kerakki, ayollarni AKT sohasida o'qitish va rivojlantirish kelajakda ularga yuqori maoshli ish topish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, o'zlariga qulay jadvalda ishslashni orzu qiladigan ayollar va frilanserlar uchun aktual. Bundan tashqari, bu har bir ayolning o'z daromadiga egaligi va moliyaviy jihatdan mustaqil bo'lishiga imkon yaratadi. Mazkur klub a'zolari tomonadan hozirgacha rasmiy va norasmiy qismlarni o'z ichiga olgan tadbirlar o'tkazib kelinmoqda. Umid qilamizki, ayollarni axborot texnologiyalari sohasiga jalb etishga qaratilgan mazkur loyiha uy bekalarining ham zamonaviy sohalarga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi.⁴⁸ [<https://ict.xabar.uz/uz/startap/ayollar-uchun-gap-tashkil-etildi>]

IT sohasidagi ayollar klubi "GAP" loyihasi doirasida "Muvaffaqiyatga erishish yo'li" deb nomlangan bepul onlayn vebinar ham tashkil qilindi.⁴⁹ [<https://t.me/mitcuz/9234>]

Navbatdagi yana bir tashabbus – "IT Women" dasturi bo'lib, mazkur loyiha yosh ayollar uchun kompyuter savodxonligi, muvaffaqiyatli loyihalarni rejalshtirish va amalga oshirish, biznesni tashkil etishga oid asosiy bilimlar bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslarini tashkil qilishni nazarda tutadi. Ushbu tashabbus doirasida ishtirokchilarni saralash jarayoni davom etmoqda, 2022-yil oxirigacha 2000 mutaxassis tayyorlash rejalshtirilgan.

Bundan tashqari, "Future skills" tashabbusi doirasida hududlarda istiqomat qiluvchi yoshlar uchun raqamli savodxonligini oshirish kurslari tashkil etildi. Maqsad – xizmat ko'rsatish sohasida raqamli texnologiyalar va elektron tijorat ko'nikmalariga ega bo'lgan yoshlar sonini ko'paytirish. 2022-yil oxirigacha 10 mingdan ortiq yoshlar o'qitiladi, bugungi kunda respublika bo'yicha ushbu treninglarda qatnashayotgan talabalar soni 4500 nafarni tashkil etdi.

"Youth Digital Skills" dasturi, shuningdek, Biznes rivojlanishini qo'llab-quvvatlash markazlari (Business Development Support Centers) qoshida raqamli biznesni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha konsultantlarni tayyorlash hamda kichik va o'rta biznes uchun raqamli mentorlik dasturi va boshqa yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

Bundan tashqari, dastur doirasida bir qator boshqa tashabbuslar amalga oshirilmoqda: Forsayt metodikasi (bashorat qilish) bo'yicha kelajakda talab qilinadigan ko'nikmalarni aniqlash bo'yicha tadqiqotni o'tkazilishi, tanlab olingan kichik va o'rta biznes korxonalarida qiymat zanjirini raqamlashtirishni sinovdan o'tkazish, 50 nafar yosh tadbirkor uchun raqamli murabbiylik tashabbusi va ayollar uchun raqamli amaliyot dasturlarini tashkil etish hamda IT masalalari bo'yicha davlat-xususiy muloqot shaklida innovatsion tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatluvchi YouthLab milliy platformasi bo'yicha ishlab chiqilgan konsepsiyasini muhokama qilish.⁵⁰ [<https://itwomen.muic.uz/uz>]

⁴⁸ <https://ict.xabar.uz/uz/startap/ayollar-uchun-gap-tashkil-etildi>

⁴⁹ <https://t.me/mitcuz/9234>

⁵⁰ <https://itwomen.muic.uz/uz>

Shuningdek, "Besh muhim tashabbus" dasturining uchinchisi – xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash tashabbusi ijrosi doirasida 2019-yilda "ITWomenUz" loyihasi ham tashkil etilgan bo'lib, ushbu loyiha uch bosqichda amal qildi. Loyihada ishtirok uchun ariza topshirgan xotin-qizlar bir hafta davomida o'quv-amaliy mashg'ulotlarda mobil ilovalar yaratish, veb-sayt tayyorlash, kompyuter grafikasi, dizayn, dasturiy mahsulotlar ishlab chiqish bo'yicha o'qitildi.⁵¹ [https://kun.uz/uz/news/2019/11/23/ayol-qizlar-uchun-ilk-itwomensuz-tanlovi-otkazilmoqda]

Loyiha doirasida hududlardagi Raqamli texnologiyalar o'quv markazlarida hamda TATU, Toshkent shahridagi Inha universiteti va Toshkent shahridagi Amiti universitetida joriy yilning fevral-mart oylarida 2000 ga yaqin xotin-qizlar uchun onlayn va oflays o'quv mashg'ulotlari tashkil etildi. Ushbu o'quv kurslarining maqsadi "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"da ro'yxatga kiritilgan xotin-qizlarga zamonaviy texnologiyalar bo'yicha tegishli bilimlarni berish, ularning kompyuter savodxonligini oshirish, ularda mobil ilova va veb-sayt yaratish hamda kompyuter dizaynerlik faoliyati bo'yicha amaliy ko'nikmalarni hosil qilish orqali ushbu yo'nalishlarda kelgusida o'z ish faoliyatları davomida axborot texnologiyalaridan foydalanish uchun zamin yaratish hamda AKT yo'nalishida ilk qadamlarini tashlashga ko'maklashishdan iborat.

Loyihaning birinchi bosqichi 35 yoshgacha bo'lган, "Temir daftar", "Ayollar daftari" hamda "Yoshlar daftari"ga kirirtilgan xotin-qizlar uchun mo'ljallangan bo'lib, joriy yilning 15-fevraldan 5-martga qadar o'tkazildi. Ulardan 1228 ta xotin-qizlar kurslarni muvaffaqiyatli yakunlashdi. Shuningdek, yurtimizning barcha hududlarida joriy yilning 17-may kunidan boshlab, "ITWomen.Uz-2021" loyihasining ikkinchi bosqichiga start berildi va 1100 nafar xotin-qizlar uchun kompyuter savodxonligi, elektron tijorat va tadbirkorlikka oid qisqa muddatli mashg'ulotlar va psixologik oflays onlayn treninglar tashkil etildi.

Loyihaning ikkinchi bosqichida esa ishtirokchilar guruhlarga biriktirilib, mentorlar boshchiligidagi IT mahsulot ishlab chiqish, IT loyiha yaratish bilan shug'ullanishdi. Eng muvaffaqiyatli ishlar loyihaning uchinchi bosqichi – tanlov uchun saralab olindi. Loyihaning yakunlovchi bosqichiga o'tgan ishtirokchilar "Eng yaxshi mobil ilova", "Eng yaxshi veb-sayt", "Eng yaxshi dasturiy mahsulot", "Eng yaxshi elektron plakat" nominatsiyalari bo'yicha taqdirlandilar.⁵² [https://mitc.uz/uz/news/2777]

Barchamizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida 2020-yilning 8-oktyabr kuni o'tkazilgan "Gender tenglik, yoshlar va ayollar masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi"da "Yoshlar daftari" va "Ayollar daftari" tizimini joriy etilishi ta'kidlangan edi.

⁵¹ https://kun.uz/uz/news/2019/11/23/ayol-qizlar-uchun-ilk-itwomensuz-tanlovi-otkazilmoqda

⁵² https://mitc.uz/uz/news/2777

Shundan so'ng har bir mahalla, tuman, shahar va viloyat kesimida "Ayollar daftari" shakllantirilib, unga ijtimoiy, huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlashga, bilim va kasb o'rganishga ehtiyoji va ishtiyogi bor bo'lgan ishsiz xotin-qizlar kiritildi. Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan IT Park bilan birqalikda Samarqand viloyatidagi "ayollar daftari"ga kiritilgan 70 nafar xotin-qizlarning "Kompyuter savodxonligi" bo'yicha bilim va ko'nikmalari oshirildi.⁵³ [<https://mitc.uz/uz/news/view/2359>]

Bugun jamiyatda ayollarimiz faqat uy bekasi, rafiqqa yoki ona vazifasi bilangina cheklanib qolmayapti. Zero, rahbar lavozimlar yoki xususiy faoliyatini yo'lga qo'yayotgan xotin-qizlar soni tobora oshib bormoqda. 2020-yilda tadbirkorlik faoliyatini boshlagan ayollar soni 38 mingtadan ko'proqni tashkil etdi. Ular tomonidan 58 mingta yangi ish o'rni yaratilgan. Va aynan shu sababli, IT Park biznes muhit va tadbirkorlikni rivojlantirish USAID loyihasi qo'llab-quvvatlashi bilan O'zbekiston Respublikasida ayollar texnologik tadbirkorligini rag'batlantiruvchi Tumaris Tech loyihasini yo'lga qo'ydi.

Mazkur loyihaning o'ziga xos tarafi, taqdim etiladigan dastur va kurslar o'z g'oyalarni daromad kelturuvchi biznesga aylantirish istagida bo'lgan IT sohasidagi tadbirkor xotin-qizlar uchun mo'ljallangan. Loyihaning asosiy vazifasi – xotin-qizlarga g'oyalarni amalga tatbiq etishlari uchun har tomonlama ko'mak hamda qo'shimcha ta'lim olishlari uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, ya'ni ayollarni ICT ekotizimiga jalg etishni kuchaytirish ko'zda tutilgan.

Loyiha bir nechta muhim qismlardan tashkil topgan bo'lib, ularda uch darajali rag'batlantirish tizimi amalga oshiriladi, xususan: avvaliga ayollar IT sohasida rivojlanish uchun zarur boshlang'ich amaliy ko'nikmalarni o'zlashtiradilar. Shundan so'ng, mazkur ko'nikmalar asosida ular g'oyani ishlab chiqishi va startaplarni rivojlantirishda professional yordam olishlari mumkin. Natijada, eng muvaffaqiyatli g'oyalarni moliyalashtirishi mumkin bo'ladi. Shuningdek, ayrim ishtirokchilar investitsiya kiritish uchun zarur bo'lgan bilimlarni olish uchun ta'lim olishlari, shu bilan O'zbekistonda ayollar tadbirkorligini va startap-ekotizimni rivojlantirishning barqaror mexanizmini ishga tushirishlari mumkin. Loyiha ishtirokchisiga aylanish uchun tumaris.tech saytida ro'yxatdan o'tish va o'z startapi prezentsiyasi ko'rinishidagi arizalarini qoldirish lozim. Xotin-qizlar tadbirkorligini yaxshilashga qaratilgan bunday tashabbuslar ko'plab ish o'rnlari yaratib, aholining o'z-o'zini ish bilan bandligini oshirishga yordam beradi, mamlakatda iqtisodiy o'sish uchun qo'shimcha resurs yaratadi.⁵⁴ [<https://xabar.uz/uz/tekhnologiya/xotin-qizlar-diqqatiga>]

Prezident, ijod, ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi tashabbusi bilan "Raqamli avlod qizlari" forumi tashkil etildi. Ushbu forum qizlarning axborot-texnologiyalari bo'yicha bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, tanqidiy

⁵³ <https://mitc.uz/uz/news/view/2359>

⁵⁴ <https://xabar.uz/uz/tekhnologiya/xotin-qizlar-diqqatiga>

fikrlash, yetakchilik qobiliyatlarini shakllantirish, tadbirkorlik va innovatsion yo'nalishlarda loyihalarni boshqarish malakalarini rivojlantirish, shu bilan birga, o'z oldilariga qo'ygan maqsadlariga erishishda ularni qo'llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan.⁵⁵ [<https://www.xabar.uz/uz/texnologiya/dasturchi-qizlar-forumi-tashkil-etildi>]

Shuningdek, o'tgan yili "Astrum" IT akademiyasi "USAID"ning Tadbirkorlik va biznes muhitini rivojlantirish bo'yicha loyihasi bilan hamkorlikda yosh ayollarni IT sohasining asosiy yo'nalishlari bo'yicha o'qitish va ingliz tilini o'rgatishga qaratilgan bepul dasturni ishga tushirdi. Dastur IT sohasida o'qish va buning natijasida mustaqil yoki qo'shimcha daromad manbaiga ega bo'lishni, shuningdek, gender tengsizligini bartaraf etish hamda zarur va tegishli ko'nikmalar asosida ish bilan ta'minlanishni xohlovchi yosh ayollarga qaratilgan bo'lib, 6 oyi davomida 200 nafaqar xotin-qizlar bepul o'qilib, ularga kurs yakunida yakuniy loyihalar ko'rgazmasi hamda bo'sh ish o'rnlari yarmarkasi ham tashkil etildi. 26-noyabr kuni esa ushbu loyihaning yopilish marosimi bo'lib o'tdi. Ushbu loyiha haqida O'zbekiston 24 telekanalining maxsus lavhasi efirga uzatildi.⁵⁶ [<https://t.me/mtrkuzofficial/90414>]

ICT4Girls loyihasi doirasida O'zbekiston qizlarining raqamli imkoniyatlarini kengaytirish forumi bo'lib o'tdi. Tadbirda davlat idoralari, xalqaro tashkilotlar, ta'lim muassasalari va o'quv markazlari vakillari ham ishtirok etdi. O'zbekiston qizlarining raqamli imkoniyatlarini kengaytirish forumi doirasidagi mehnat va ta'lim yarmarkasida yurtimizdagI IT sohasiga aloqador davlat tashkilotlari, universitetlar, kompaniyalar va o'quv markazlari ishtirok etdi. IT sohasiga qiziqqan turli yoshdagi yigit-qizlar o'z tashrifi davomida bo'sh ish o'rnlari va o'qish uchun mavjud imkoniyatlar bilan tanishib, yangi do'stlar orttirishga muvaffaq bo'ldi. Mazkur forumdan lavhalar O'zbekiston 24 telekanalining Axborot 24 informatsion dasturida o'zbek va rus tillarida namoyish etildi. Shuningdek, Xalqaro Press klub jamoasi ham forumda faol qatnashib, tadbirdan ajoyib reportaj tayyorladi.⁵⁷ (<https://youtu.be/m3oEQWZNhtM>)

AKT sohasi ayollarimiz kelajagi uchun juda ko'p imkoniyatlar ochadi, hatto o'z kelajagini farzandi tarbiyasiga bag'ishlab uy bekasi bo'lmoqchi bo'lgan ayollar ham AKT sohasini bitirishgandan keyin nafaqat farzandlarini ushbu soha bo'yicha kelajakda yaxshiroq tayyorlay oladilar, balki uydan turib ham masofaviy AKT xizmatlari ko'rsatib qo'shimcha daromad topish imkoniga ega bo'ladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ernazarov Q.T., Mamatova Y.M., Toshaliyev I.E. Reportyorlik faoliyatining nazariyasi va amaliyoti – T., 2002. – B.91-92-99.

⁵⁵ <https://www.xabar.uz/uz/texnologiya/dasturchi-qizlar-forumi-tashkil-etildi>

⁵⁶ <https://t.me/mtrkuzofficial/90414>

⁵⁷ <https://youtu.be/m3oEQWZNhtM>

**JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME-2, ISSUE-15 (28-February)**

2. Tafakkur. 2010-yil. 1-son – B.28
3. <https://mitc.uz/uz/news/2777>
4. <https://t.me/mtrkuzofficial/90414>
5. <https://xabar.uz/uz/texnologiya/xotin-qizlar-diqqatiga>
6. <https://ict.xabar.uz/uz/startap/ayollar-uchun-gap-tashkil-etildi>
7. <https://kun.uz/uz/news/2019/11/23/ayol-qizlar-uchun-ilk-itwomenuz-tanlovi-otkazilmoqda>
8. <https://itwomen.muic.uz/uz>